

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**BAYEVA SHAXZODA XABIBULLAYEVNA**

**TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Bayeva Shaxzoda Xabibullayevna**

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish.....3

**Баева Шахзода Хабибуллаевна**

Совершенствование финансирования предпринимательской деятельности ..29

**Bayeva Shakhzoda Khabibullaevna**

Improving the financing of entrepreneurial activity .....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**BAYEVA SHAXZODA XABIBULLAYEVNA**

**TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.3.PhD/Iqt380 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Almardonov Muxammadi Ibragimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Tashmuradova Buvsara Egamovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «20» 07 soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1335 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «6» 07 kuni tarqatildi.  
(2023 yil «6» 07 dagi 43 raqamli reestr bayonnomasi).



**M.P. Eshov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V. Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**S.K. Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tajribasi ko'rsatishicha, har qanday iqtisodiyotning barqaror va innovatsion taraqqiyotini ta'minlashning zarur omillaridan biri tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hisoblanib, ishsizlik, aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini yaratish orqali kambag'allikni kamaytirish kabi dolzarb muammolarning hal etilishida muhim rol o'ynaydi. Kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmidagi ulushi «Yevropa Ittifoqida 75 foiz, AQShda 53 foiz, Yaponiyada 55 foizga teng»<sup>1</sup>. Jahon banki (World Bank Group)ning 2021 yil yakunlari bo'yicha hisobotida qayd etilishicha, «Kichik korxonalar – dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining poydevori bo'lib, ular tomonidan hayotiy muhim xizmatlar taqdim etiladi, ish o'rinlari yaratiladi va oilalarning kambag'allikdan xalos bo'lishiga yordam beradi... shuning uchun biz uzoq muddatli istiqbolda ularning yashab qolishini ta'minlashimiz kerak»<sup>2</sup>. Kichik korxonalarining yashab qolishini ta'minlash va ushbu faoliyat turining rivojlantirilishi bevosita ularni moliyalashtirish masalasiga borib taqaladi. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) ma'lumotlariga ko'ra, «rivojlanayotgan mamlakatlardagi 65 mln. firma yoki mikro, kichik va o'rta korxonalarining 40 foizi har yili 5,2 trln. AQSh dollari miqdoridagi qo'shimcha kreditlarga ehtiyoji mavjud, bu raqam bugungi kundagi global darajada kichik va o'rta biznesni kreditlash darajasidan 1,4 barobarga ko'pdir»<sup>3</sup>. Turli nufuzli xalqaro moliyaviy institutlari va banklar reytingida asosiy indikatorlardan biri sifatida kredit olish tartibi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonlarining ham inobatga olinganligi dunyo mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda Jahon banki va uning tarkibidagi Xalqaro moliya korporatsiyasi, AQSh xalqaro taraqqiyot agentligi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Buyuk Britaniyaning xalqaro rivojlanish departamenti, Birlashgan millatlar tashkilotining Taraqqiyot dasturi va shu kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda kichik tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va mikromoliyalashtirish tizimini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini nobank kredit tashkilotlari tomonidan moliyalashtirish tizimini samarali tashkil etish kabi masalalar o'z yechimini topgan. Ammo, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash Davlat jamg'armasi mablag'laridan samarali foydalanish, kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga ajratiladigan kreditlarga kafillik berish, kompensatsiya kabi moliyaviy yordam, maxsus Davlat dasturlari doirasida tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish bilan bog'liq masalalar hanuzgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan.

---

<sup>1</sup> <https://ma123.ru/wp-content/uploads/2020/07/Коваленко-2-2020.pdf>.

<sup>2</sup> Годовой отчет IFC 2021. Группа Всемирного банка. Международная финансовая корпорация 2121 Pennsylvania Avenue, NW Washington, DC 20433 USA. ifc.org. 2021. – С. 10.

<sup>3</sup> [https://unctad.org/system/files/official-document/osg2020d1\\_en.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/osg2020d1_en.pdf). Impact of the Covid-19 Pandemic on Trade and Development.; For appropriations from all legislation, see Government Accountability Office (GAO), COVID-19: Opportunities to Improve Federal Response and Recovery Efforts, Report to the Congress, GAO-20-625, June 25, 2020, <https://www.gao.gov/reports/GAO-20-625/>.

O‘zbekistonda istiqloq yillarida kichik tadbirkorlik faoliyati taraqqiyotini ta’minlash iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi natijasida ushbu sohaning «mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi 2021-yilda 54,9 foizga yetkazildi. Vaholanki, 2000-yilda ushbu ko‘rsatkich 31 foizni tashkil qilgan»<sup>4</sup>. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «...kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish»<sup>5</sup> hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish»<sup>6</sup> vazifalari belgilab berildi. Bunday hayotiy muhim vazifalarning uddalanishi tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishdagi o‘ziga xos muammolarning hal etilishini, tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish tizimining takomillashtirilishini taqozo etadi. O‘z navbatida, ushbu jihatlar tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish masalasining chuqur ilmiy tadqiq etilishini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-son «Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son «Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida»gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi PQ-212-son «Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2021-yil 27-martdagi PQ-5041-son «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar xorijlik iqtisodchi-olimlardan A.Xosking, R.Xizrich, M.Piters, F.Xayek, K.Dj.Lembden, M.Yunus, F.Allen, Y.Shumpeter, Y.Joshua tomonidan o‘rganilgan<sup>7</sup>.

<sup>4</sup> <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni. 3.1. 5-band.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni, 29-maqсад.

<sup>7</sup> Хоскинг А. Курс предпринимательства. – М.: «Дело», 1993. – 230 с.; Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство. – М.: «Дело», 1991. – 159 с.; Хайек Ф. Познание, конкуренция и свобода. Аналогия

Yaqin xorijlik olimlardan A.Agafonov, M.Alikayeva, N.Balandina, V.Burov, A.Busigin, N.Bikanova, M.Lapusta, Yu.Rubina, V.Rube, S.Smirnov, Ye.Cheberko, L.Chebuxanova, V.Chernenko kabilarning ilmiy ishlarida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish, davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kichik tadbirkorlik subyektlarini kreditlash tizimini va mikromoliyalashtirish texnologiyasini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar tadqiq etilgan<sup>8</sup>.

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan S.G‘ulomov, B.Xodiev, M.Qosimova, A.Samadov, U.Gafurov, Q.Muftaydinov, T.Qoraliev, G‘.Yaxshiboev, D.Saidovlarning tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyati va uni moliyalashtirishning nazariy-uslubiy jihatlari, rivojlanish tendensiyalari, sohadagi muammolar, ustuvor yo‘nalishlar, bu boradagi islohotlar tadqiq qilingan<sup>9</sup>.

So‘nggi yillarda himoya qilingan ilmiy ishlarda kichik tadbirkorlik faoliyati moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish, kichik tadbirkorlik subyektlarini mikromoliyalash va moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish masalalari umumiy tarzda tadqiq etilgan. Bular jumlasiga U.Azizov, I.Alimardonov, Sh.Ahmadjonov, R.Yunusov, R.Omonov, B.Mamatov, M.Rustamov, O.Ergashevlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini kiritish mumkin<sup>10</sup>.

---

сочинений. – М.: «Пневма», 1990. – 309 с.; Лембден К. Дж. Финансы в малом бизнесе. Пер. с англ. – М.: «Финансы и статистика», 1992. – 200 с. Мухаммад Ю., Алан Ж. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: «Альпина Паблишер», 2010. – 307 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития: исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры. Пер. с немец. В.С.Автомомова и др. – М.: «Прогресс», 1982. – 455 с.; Joshua Yindenaba Abor. Entrepreneurial Finance for MSMEs. A Managerial Approach for Developing Markets. University of Ghana Business School Accra, Ghana. 2017. – 443 с.

<sup>8</sup> Агафонов А.А. Развитие финансирования инвестиционных проектов в сегментах малого и среднего бизнеса. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. к.э.н. – Ростов-на-Дону: «РИНХ», 2016. – 26 с.; Аликаева М.В. и др. Стратегическое развитие малого бизнеса и формы поддержки индивидуального предпринимательства: монография. – Нижний Новгород: «Профессиональная наука», 2018. – 302 с.; Бalandina Н.Г. Теоретические и практические аспекты развития предпринимательства в России. Монография. – М.: «ИНФРА-М», 2021. – 164 с.; Буров В.Ю. Основы предпринимательства: Часть III, учебное пособие: Забайкал. гос. ун-т. – изд. 2-е, доп. и перераб. – Чита: «ЗабГУ», 2018. – 296 с.; Буров В.Ю. Малое предпринимательство и цифровая экономика: перспективы и проблемы. – Чита: «ЗабГУ», 2018. – 221 с.; Бусигын А.В. Предпринимательство: Учебник. – 3-е изд. – М.: «Дело», 2001. – 640 с.; Быканова Н.И. Формирование эффективной системы финансирования малого бизнеса путем совершенствования кредитования и развития технологии микрофинансирования. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. к.э.н. – Орел: «Белгородский государственный национальный исследовательский университет», 2012. – 28 с.; Лапуста М.Г. Предпринимательство: Учебник. – М.: «ИНФРА-М», 2008. – 608 с.; Рубина Ю.Б. Основы бизнеса. Учебник. 6-е изд., перераб. и дополн. – М.: «Маркет ДС Корпорейшн», 2005. – 784 с.; Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. – М.: «ТЕИС», 2000. – 231 с.; Смирнов С.А. Малое предпринимательство: общественная поддержка и содействию развития. – М.: «ЭБТ-Контур», 1999. – 160 с.; Чеберко Е.Ф. Основы предпринимательской деятельности. История предпринимательства: учебник и практикум для СПО. – М.: «Юрайт», 2019. – 420 с.; Чебуханова Л.В. Развитие инструментария финансирования малых инновационных предприятий в современных условиях. Диссертация на соиск. уч. ст. к.э.н. – М.: «РУДН», 2020. – 244 с.; Черненко В.А., Омарова Д.О. Финансирование малого бизнеса в Российской Федерации: монография. – СПб.: «Астерион», 2016. – 173 с.

<sup>9</sup> G‘ulomov S.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2005. – 444 b.; Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: «TDIU», 2010. – 260 b.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – T.: «Moliya», 2016. – 120 b.; Muftaydinov Q.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. I.f.d. ilm. dar. olish uchun yozil. diss. avtoref. – Andijon: «ADU», 2004. – 40 b.; Qoraliev T.M., Yaxshiboyev G‘.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta‘minlash mexanizmi. Monografiya. – T.: «Akademiya», 2006. – 118 b.; Saidov D.A. Tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘llari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtoref. – T.: «TMI», 2008. – 26 b.

<sup>10</sup> Azizov U.O‘. Tijorat banklari tomonidan kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari. I.f.n. ilm. dar. ol. uch. yoz. diss. avtoref. – T.: «TMI», 2004. – 21 b.; Alimardonov I.M. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) dissertatsiyasi Avtoref. – T.: «BMA»,

Mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot va nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan, kichik tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish masalasi tizimli tarzda chuqur o'rganilmagan. Amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarning kichik tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish shart-sharoitlariga muvofiq o'zgarib borishi ushbu sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish lozimligidan dalolat beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-2017092964-sonli «O'zbekiston Respublikasi bank tizimining barqarorligini oshirish istiqbollari» mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning nazariy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tadqiq etish va uning muhim xarakterli belgilari va xususiyatlarini aniqlash;

tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni tashkil etish yuzasidan xorij tajribalarini o'rganish va ilg'or tajribalaridan foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

tijorat banklari, xorijiy kredit liniyalari va nobank kredit tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini tahlil qilish va mavjud tendensiyalarni aniqlash;

tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishga ta'sir qilayotgan omillarni korrelyatsion tahlil qilish, moliyalashtirish amaliyotidagi muammolarni tadqiq etish va uning yechimlarini ishlab chiqish;

ilg'or xorij tajribalari asosida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va takliflar tayyorlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmi tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish jarayonida sodir bo'ladigan moliyaviy munosabatlar majmuidan iborat.

---

2018. – 62 b.; Ahmadjonov Sh. X. Xususiy sektorni samarali moliyalashtirish masalalari. I.f.n. ilm. dar. olish uchun yozil. diss. avtoref. – T.: «TMI», 2007. – 21 b.; Yunusov R. M. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarini moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'llari. I.f.n. ilm. dar. olish uchun yozil. diss. avtoref. – T.: «TDIU», 2008. – 19 b.; Омонов Р.М. Региональный механизм финансово-экономического обеспечения потребностей малого бизнеса. Автореф. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук. – T.: «БФА», 2009. – 21 с.; Mamatov B.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mikromoliyalash amaliyoti va uni takomillashtirish. I.f.n. ilm. dar. olish uchun yozil. diss. avtoref. – T.: «TMI», 2010. – 26 b.; Rustamov M.S. Kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini ilg'or xorij tajribasi asosida takomillashtirish yo'llari. Iqt. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) diss. Avtoref. – T.: «TMI», 2019. – 52 b.; Ergashev O.T. O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) diss. Avtoref. – T.: «TMI», 2022. – 58 b.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, taqqoslash, korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan tijorat banklari kreditlariga kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga ajratiladigan kreditlarning 50 foizigacha kafillik berish taklif etilgan;

tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan, umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan qismini qoplash uchun 3 yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etishning zarurligi asoslangan;

olis va borish qiyin bo'lgan, shuningdek, mehnat resurslari ortiqcha hududlardagi kooperatsiya asosida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish uchun kichik tadbirkorlik subyektlarining loyihalarga ajratiladigan kreditlarning 75 foizigacha kafillik berish taklif etilgan;

aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularning o'z biznesini tashkil etishiga ko'maklashish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish maqsadida Dasturlar doirasida tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xarakterli muhim belgilari, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari tavsiflangan va tasniflangan;

tadbirkorlik faoliyatini, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish tizimi ochib berilgan;

tijorat banklari, xorijiy kredit liniyalari va nobank kredit tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish tendensiyasi aniqlangan va takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning YaIM hajmi bilan tadbirkorlik faoliyatida band bo'lganlar soni o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi aniqlangan;

kichik korxonalariga sifatli va zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatishni yo'lga qo'yish, tadbirkorlik subyektlariga tashqi savdo amaliyotlarida savdoni moliyalashtirish xizmatini ko'rsatish va kichik tadbirkorlik subyektlarining aylanma mablag'lari uzluksizligini ta'minlash maqsadida revolver kredit turini rivojlantirishning zarurligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalardan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga oid ma'lumotlarning hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan tadbirkorlik faoliyatini

moliyalashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada chuqurlashtirishga, tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlarining tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishni takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlarini ishlab chiqishda, Davlat dasturlari doirasida tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish bilan bogʻliq normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda va oliy oʻquv yurtlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning moliyaviy taʼminotiga oid fanlarning oʻquv dasturlarini mazmunan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish boʻyicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi tomonidan tijorat banklari kreditlariga kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga ajratiladigan kreditlarning 50 foizigacha kafillik berish boʻyicha taklif Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli «Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi Farmonining ishlab chiqilishida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 17-fevraldagi 05-33-4-10/21-son maʼlumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida tadbirkorlar tomonidan banklardan kredit olish paytida garov taʼminoti yetishmasligi bilan bogʻliq ayrim muammolarning ijobiy hal etilishi taʼminlangan;

tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan, umumiy qiymati 5 milliard soʻmdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan kredit va lizinglari boʻyicha uning asosiy stavkadan oshgan qismini qoplash uchun 3 yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etish toʻgʻrisidagi taklif Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli «Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi Farmonining ishlab chiqilishida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 17-fevraldagi 05-33-4-10/21-son maʼlumotnomasi). Natijada, Jamgʻarma tomonidan tijorat banklari kreditlari boʻyicha foizli xarajatlarni qoplash uchun kompensatsiya berish shaklida moliyaviy yordam koʻrsatilgan va tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchilar davlat tomonidan har tomonlama qoʻllab-quvvatlangan;

olis va borish qiyin boʻlgan, shuningdek, mehnat resurslari ortiqcha hududlardagi kooperatsiya asosida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga koʻmaklashish uchun kichik tadbirkorlik subyektlarining loyihalarga ajratiladigan kreditlarning 75 foizigacha kafillik berish tavsiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli «Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi Farmonining ishlab chiqilishida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 17-fevraldagi

05-33-4-10/21-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy himoya qilish va kafolatlarini ta'minlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish, biznes subyektlarining kredit resurslaridan foydalanishi imkoniyatlarini kengaytirish va shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda aholi hayot darajasini oshirishga xizmat qilgan;

aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularning o'z biznesini tashkil etishiga ko'maklashish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish maqsadida Dasturlar doirasida tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-martdagi PQ-5041-sonli «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorining ishlab chiqilishida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 17-fevraldagi 05-33-4-10/21-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2021 yilda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash Dasturlari doirasida jami 9,0 trln. so'm miqdoridagi mablag'lar tadbirkorlik faoliyatini maqsadli va tizimli moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 10 ta respublika miqyosidagi o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferentsiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola (5 ta mahalliy va 2 ta xorijiy nashrlarda) va 2 ta xalqaro hamda 10 ta respublika tezislari va 2 ta monografiya nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil etib, unda 20 ta rasm, 15 ta jadval, 1 ta formula va 5 ta ilova keltirilgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va xorij tajribalari**» deb nomlanib, unda tadbirkorlik faoliyatining muhim xarakterli belgilari, kichik tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish tizimi va tarkibiy jihatlarini, kichik tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni tashkil etishning xorij tajribalari kabi masalalar yoritilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish ko'pqirrali va murakkab iqtisodiy kategoriyalardan iborat va uning iqtisodiy mohiyati quyidagi ketma-ketlikda

ifodalangan soʻzlar hamda soʻz birikmalari orqali aks etuvchi tushunchalar uygʻunligidan tashkil topgan, deb hisoblash mumkin: «tadbirkorlik», «tadbirkorlik faoliyati», «moliyalashtirish».

I. Tadbirkorlikning tarixi uzoq oʻtmishga borib taqalsa-da, mazkur tushuncha birinchi bor «XVIII asrda irlandiyalik iqtisodchi R.Kantilonning «Очерк о природе торговли» (1975 y.) asarida «mulkdor» iborasi bilan bir maʼnoda qoʻllanilgan»<sup>11</sup>. Uning fikricha: «tadbirkor – bu risk sharoitida harakat qiluvchi shaxs»<sup>12</sup>. Albatta, bu yerda xoʻjalik faoliyati bilan bogʻliq risk haqida gap ketayapti va olimning fikricha, tadbirkorlikning asosiy xususiyati uning risk bilan bogʻlanishida va isteʼmolchi talabini qondirish orqali foyda olishdir.

«A.Smit tadbirkorni foyda olish uchun biron-bir tijorat gʻoyasini amalga oshirish maqsadida tavakkal qilib ish koʻruvchi mulkdor»<sup>13</sup>, deb taʼriflaydi.

Keyinchalik bu gʻoya nemis iqtisodchisi Y.Tyunen (1783-1850) asarlarida yanada rivojlantirildi. U tadbirkorlikning eng muhim xarakterli belgisi sifatida «yaratuvchanlik»<sup>14</sup>ni ilgari suradi.

Tadbirkorlik nazariyasiga muhim xissa qoʻshgan olimlardan Y.Shumpeterning eʼtirof etishicha, «tadbirkorlik yangi ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy etish yoʻllari bilan ishlab chiqarishni isloh qilish va inqilobiy oʻzgarishlarni amalga oshirishdir. Tadbirkor mulkdor boʻlishi shart emas, u yollanuvchi boʻlishi ham mumkin. U yangi kombinatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxsdir»<sup>15</sup>. Tadbirkorga novator deb qarash ham, aynan, Y.Shumpeter tomonidan qayd etilgan.

Fikrimizcha, tadbirkorlik foyda olish maqsadida xoʻjalik yuritish sanʼati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik va tashabbusning erkin namoyon boʻlishi, novatorlik, xavf-xatarga doim tayyor turish kabi belgilar bilan tavsiflanadi. Yaratuvchanlik, mulkiy javobgarlik va tahlika asosida foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlikka tadbirkorlik deyiladi.

II. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishda oʻziga xos va albatta, eʼtiborga olinishi kerak boʻlgan ikkinchi tayanch nuqta «tadbirkorlik faoliyati»ning oʻzidir.

«Faoliyat» arab tilidan olingan boʻlib, oʻzbek tilida «harakatchanlik, taʼsirchanlik, samaradorlikni bildiradi va ona tilimizda ikki: a) biror sohada olib boriladigan ish, mashgʻulot, harakat; b) shunday ish, harakat jarayoni»<sup>16</sup> maʼnolarida qoʻllaniladi. Tadbirkorlik faoliyati mavjud resurslardan (moddiy va nomoddiy boyliklar) oqilona foydalanib, foyda olishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Shuningdek, ushbu faoliyat mulkchilik subyektlarining tavakkalchilik va oʻz mulkiy javobgarligi asosida tovar ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish hamda foyda olishga qaratilgan amaldagi qonunlar doirasidagi tashabbuskor faoliyatni nazarda tutadi. Tadbirkorlik faoliyati maxsus iqtisodiy vazifa sifatida ham kichik, ham yirik

<sup>11</sup> Бусыгин А.В. Предпринимательство: Учебник. – 3-е изд. – М.: «Дело», 2001. – С. 72.

<sup>12</sup> Чеберко Е.Ф. Основы предпринимательской деятельности. История предпринимательства: учебник и практикум для СПО. – М.: «Юрайт», 2018. – С. 16.

<sup>13</sup> Рубин Ю.Б. Основы предпринимательства. 3-е изд. переп. и доп. – М.: «Синергия», 2020. – С. 9-18.


<sup>14</sup> [https://studme.org/192830/ekonomika/teorii\\_predprinimatelstva\\_xviiiix](https://studme.org/192830/ekonomika/teorii_predprinimatelstva_xviiiix).

<sup>15</sup> Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: «Прогресс», 1985. – С. 159-160.

<sup>16</sup> Oʻzbek tilining izohli lugʻati: 80000 dan ortiq soʻz va soʻz birikmasi. 5 jildli. J.IV. Tartibot-shukr / tahrir hayʼati T.Mirzayev (rahbar) va boshq. – T.: «OʻzME», 2008. – B. 326.

biznes sharoitida amalga oshirilishi mumkin. Biroq, jahon amaliyoti tasdiqlashicha, yuqori texnikadan muvaffaqiyat omili sifatida keng foydalanilgan, yangi sohalarni o'zlashtirish bilan bog'liq hamda tadbirkorlik vazifasini aniq bajarayotgan korxonalar asosan kichik firmalar ko'rinishida vujudga kelmoqda.

Fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyatining mazmun-mohiyatini mujassam etuvchi ta'riflarda ushbu tushunchaga xos bo'lgan zaruriy xarakterli belgilar ham ochib berilishi kerak va buni 1-rasm orqali tasvirlaymiz.



### **1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim xarakterli belgilar (xususiyatlar)<sup>17</sup>**

Shuni alohida ta'kidlab o'tmoq lozimki, tadbirkorlik faoliyatiga xos bo'lgan yuqoridagi muhim xarakterli belgilarning barchasi bir vaqtning o'zida namoyon bo'lgan taqdirdagina ular tadbirkorlik faoliyatining mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qilishi mumkin. Aks holda tadbirkorlik faoliyati nazariy va amaliy jihatdan o'zini to'la ifoda eta olmaydi.

Tadbirkorlik faoliyatining ana shunday muhim belgilari, ustuvorligi va afzalliklari sabab davlat tomonidan berilayotgan e'tibor natijasida mazkur sohada yil sayin ijobiy yutuq va iqtisodiy o'sishga erishilganligini ko'rish mumkin. 2000-2021 yillar mobaynida mamlakatning YaIM, sanoat, qurilish, bandlik va eksport hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi barcha omillarning ta'siri ostida (shu jumladan, inflyatsiya, koronavirus pandemiyasi) o'sib borish tendensiyasiga ega

<sup>17</sup> Rasm tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan ishlab chiqilgan. Uni ishlab chiqishda turli davrdagi turli manbalarda (lug'at, ensiklopediya, monografiya, mahalliy va xorijiy maqolalar, dissertatsiyalar, qonun hujjatlari va h.k.da) tadbirkorlik faoliyatiga berilgan ta'riflar mazmuni tahlil qilingan.

bo'lgan. Ammo, ushbu tendensiya barqarorlik xarakteriga ega emas. Tadbirkorlik subyektlari uchun mahsulotni eksport qilish qator afzalliklarga ega bo'lishiga qaramay, eksportni importdan oshirishga erishganlaricha yo'q (1-jadval).

### 1-jadval

#### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar (foiz hisobida)<sup>18</sup>

Ko'rsatkichlar	YaIM	Sanoat	Qurilish	Bandlik	Eksport	Import	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
2000 yil	31,0	12,9	38,4	49,7	10,2	27,4	31,4
2001 yil	33,8	12,5	40,4	51,8	9,3	26,9	31,8
2002 yil	34,6	15,4	42,0	53,5	7,5	24,9	32,7
2003 yil	35,0	10,8	39,9	56,7	7,3	33,7	32,5
2004 yil	35,6	11,0	49,6	60,3	7,3	32,7	29,9
2005 yil	38,2	10,0	50,9	64,8	6,0	33,7	31,5
2006 yil	42,1	10,9	52,1	69,1	10,7	34,0	33,6
2007 yil	45,7	13,2	55,4	72,1	14,8	32,0	32,2
2008 yil	48,2	14,6	58,4	73,1	12,4	35,7	28,4
2009 yil	50,1	17,9	42,4	73,9	14,6	42,5	27,0
2010 yil	52,5	26,6	52,5	74,3	13,7	35,8	40,4
2011 yil	54,0	28,6	67,6	75,1	18,8	34,3	45,2
2012 yil	54,6	29,7	70,0	75,6	14,0	38,6	44,6
2013 yil	55,8	33,0	70,6	76,7	26,2	42,4	44,0
2014 yil	56,1	36,8	69,5	77,6	27,0	45,4	44,4
2015 yil	54,5	40,6	66,7	77,9	27,0	44,5	45,7
2016 yil	57,3	45,3	66,9	78,2	26,0	46,8	46,2
2017 yil	63,6	41,2	64,8	78,0	22,0	53,6	47,9
2018 yil	60,4	37,4	73,2	76,3	27,2	56,2	45,1
2019 yil	56,5	25,8	75,8	76,2	27,0	61,6	41,5
2020 yil	55,7	27,9	72,5	74,5	20,5	51,7	42,1
2021 yil	54,9	27,0	72,4	74,4	22,3	48,7	41,8
<b>2021 yilda 2000 yilga nisbatan o'zgarishi, f.b.</b>	<b>+23,9</b>	<b>+14,1</b>	<b>+34,0</b>	<b>+24,7</b>	<b>+12,1</b>	<b>+21,3</b>	<b>+10,4</b>

Sohaning YaIM hajmidagi ulushi so'nggi 20 yil davomida 23,9 foiz bandga ortib, 2021 yilda 54,9 foizni tashkil qilgan. Bu xalqaro miqyosda ham ijobiy ko'rsatkich hisoblanadi. Tahlil qilingan davr oralig'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat YaIM hajmi, sanoat va qurilishdagi ulushi «ko'tarilish-pasayish-ko'tarilish-pasayish» tarzida o'zgarib borgan. Buning o'ziga xos sabablari bor: birinchidan, tahlil qilingan davr oralig'larida YaIM, qurilish va sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari tadbirkorlik faoliyatining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan (bunday holat iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, asosiy fondlarni barpo etish va ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish nuqtai nazaridan ijobiy holatni namoyon qiladi), ikkinchidan, mazkur soha vakillari aksariyat hollarda boshlang'ich mablag'larga ega emas, qo'shimcha moliyaviy resurslar (kreditlar)ni jalb etishda qiyinchiliklar mavjud, bozor sharoitlarining o'zgarishiga ta'sirchan, uchinchidan, bunday manzaraning amaliyotda kuzatilishi bu yerda unga tegishli bo'lgan talaygina muammolarning mavjudligini ham ko'rsatadi. 2000-2021 yillar oralig'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi ulushi 10,4 foizli bandga o'sgan. Bunday holat shu bilan bog'liqki, mazkur tarmoqlarda kichik tadbirkorlik subyektlari bozor kon'yunkturasi bilan

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bog‘liq o‘zgarishlarni tez namoyon etadi, vaholanki yirik korxonalar bunday davriy va tasodifiy o‘zgarishlarga tez moslasha olmaydilar. Bu va yuqorida qayd etilgan holatlar kichik tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda istiqbolga qaratilgan samarali islohotlar yo‘nalishlarini tadqiq qilish zaruriyatini yanada oshirmoqda.

III. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishdagi fundamental masalalardan navbatdagisi, avvalo, «tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish»ning o‘ziga nisbatan aniq bir yondashuvni shakllantirish hisoblanadi. Shuni afsus bilan qayd etish zarurki, «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «moliyalashtirish» tushunchasining izohi nazardan chetda qolgan. Holbuki, mazkur tushunchaning ekvivalenti dunyodagi boshqa xalqlarning tillarida mavjud. Xususan, «moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash, mablag‘ chiqarish (ajratish), mablag‘ bilan ta‘minlash»<sup>19</sup> va shu kabilar. Demak, «tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish» deganda, eng avvalo, shu faoliyatni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash tushuniladi degan mantiqiy xulosa kelib chiqadi.

Ayni damda, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish o‘z ichiga nimalarni qamrab olishi mumkinligi ham e‘tibordan chetda qolmasligi zarur. Shu munosabat bilan ta‘kidlash joizki, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish obyektiv iqtisodiy qonuniyatlarga asoslanishi lozim. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish tizimida moliyaviy munosabatlar bazis sifatida qatnashib, boshqa qismlar ustqurma hisoblanadi. Moliyalashtiruvchi muassasalar esa tizimning boshqa qismi sifatida qatnashadi, ya‘ni u barcha pul va kredit oqimlarini boshqarib turadi. Bu tarkibiy qismlar o‘zaro aloqadorlikka ega va bir butunlikni ifodalaydi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish tizimini 2-rasm orqali ifodalash mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar boy tajribalarga ega. Jumladan, «AQSh va Yaponiya davlatlarining bu boradagi tajribalarini tadqiq etish va samarali o‘zlashtirish maqsadga muvofiqdir»<sup>20</sup>. AQSh Kongressi tomonidan 1953 yilda AQShda kichik biznes to‘g‘risidagi qonun qabul qilingan va shu yili Kongress qaroriga ko‘ra «Kichik biznes ma‘muriyati (KBM) tuzilgan ediki, uning asosiy maqsadi – o‘z shaxsiy ishini tashkil etishni, biznesda o‘rnashib olishni istaganlarga yordam ko‘rsatishdan iborat edi»<sup>21</sup>. Vaholanki, dunyoning aksariyat mamlakatlarida bu kabi mahkama yo‘q. Davlat tomonidan KBM orqali ko‘rsatilayotgan moliyaviy yordam tizimi qator kredit dasturlariga ega. Bu tizimda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va kafolatlangan qarzlarni ajratib ko‘rsatish zarur. «KBM kichik va o‘rta korxonalarga moliyaviy


---

<sup>19</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. 5 jildli. J.II. YE-M / Tahrir hay‘ati T.Mirzayev (rahbar) va boshq. – T.: «O‘zME», 2008. – B. 611.; Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. Ikki tomli. T.II. P-YA. – Toshkent, 1984. – B. 669.; Язык бизнеса. Термины. – Ташкент: «Шарк», 1995. – С. 579.; Финансово-кредитный словарь. Т. III. P-Я. – М.: «Финансы и статистика», 1988. – С. 292.

<sup>20</sup> Bunda quyidagi omillarni hisobga oldik: birinchidan, AQShda tadbirkorlik faoliyati taraqqiyotiga ko‘maklashuvda davlatning faol ishtiroki yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bu, nafaqat, davlat tomonidan huquqiy asoslarning yaratilganligida, balki bu jarayon davlatning maxsus dasturi asosida amalga oshirilishida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi; ikkinchidan, Yaponiyada tadbirkorlik faoliyati taraqqiyoti halqaro miqyosdagi fan-texnika inqilobi yutuqlaridan, innovatsiyalardan oqilona foydalanishni har tomonlama rag‘batlantiruvchi maxsus davlat siyosati natijasidir. Yalpi milliy mahsulot va eksport hajmida tadbirkorlik ulushining salmoqli darajasi mazkur davlat siyosatining tadbirkorlik faoliyati taraqqiyotini rag‘batlantirish masalasiga ham bevosita taalluqli ekanligini tasdiqlaydi.

<sup>21</sup> Сирополис Н. К. Управление малым бизнесом. Пер. с англ. – М.: «Дело», 1997. – С. 19.

mablag'lar taqdim etishda turli tashkilotlar manfaatdorligini oshirish maqsadida qarz sarmoyasining 90 foizigacha miqdorida kreditorlarga davlat kafolatlarini beradi, biroq bunda kafolat summasi 750000 AQSh dollaridan oshmasligi lozim»<sup>22</sup>.



## 2-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish tizimi<sup>23</sup>

Tajriba shuni ko'rsatadiki: AQShda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat va ijtimoiy siyosatning qat'iyligi; tadbirkorlik faoliyatiga qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish imkonini beruvchi yangi korxonalar tashkil etish va faoliyat ko'rsatayotganlarini kengaytirishni amaliy rag'batlantirishni ta'minlovchi imtiyozli soliq tartibi; tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashning rivojlangan infratuzilmasi; kreditorlarga davlat kafolatlarining berilishi kabilarni alohida qayd etish zarur.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha Yaponiya yuksak darajaga erishdi. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish

<sup>22</sup> file:///C:/Users/User/Downloads/kreditovanie-malogo-biznesa-za-rubezhom.pdf.

<sup>23</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

uning barcha bosqichlarida (ro'yxatga olish, tashkil etish, moliyalashtirish) olib boriladi. «Byudjet mablag'larining asosiy qismi maxsus Dasturlar asosida yo'naltiriladi. Tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishda davlat kredit kafolati tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan»<sup>24</sup>. Tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan banklar (Regional banks, Shikhin banks) ham mavjud.

Yevropa Ittifoqida tadbirkorlik faoliyatini, kichik va o'rta korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maxsus Dasturlar («Savdo korxonalarini birlashtirish», «Boshlang'ich kapital» va «Yevrotex-kapital») asosida amalga oshiriladi. «Buyuk Britaniya va Fransiyada davlatning kafolat fondlari tashkil etilgan bo'lib, ularning mablag'lari hisobidan tijorat banklarining kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlarining qaytarilishi kafolatlanadi»<sup>25</sup>. Xususan, «Buyuk Britaniya tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan «Loon Quarantie Scheme» hukumat Dasturi asosida banklar tomonidan berilgan kreditlarning 70 foizigacha, chekka va sust rivojlangan hududlarda esa 85 foizigacha kafillik beriladi»<sup>26</sup>. Fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha ilg'or tajribalardan kelib chiqib: tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash Davlat jamg'armasi tomonidan tijorat banklari kreditlariga kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga ajratiladigan kreditlarning 50 foizigacha, chekka va sust rivojlanayotgan hududlarda kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish uchun kichik tadbirkorlik subyektlarining loyihalarga ajratiladigan kreditlarning 75 foizigacha kafillik berish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, AQSh va Yaponiya tajribalariga asoslanib, mamlakatimizda aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus Dasturlar doirasida tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish zarur, deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning «**Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tijorat banklari, xorijiy kredit liniyalari va nobank kredit tashkilotlari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning joriy holati tadqiq etilgan.

2015-2021 yillarda YaIM hajmi va tijorat banklarining kredit qo'yimalari muntazam o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2015-2021 yillarda YaIM hajmi 3,3 martaga, tijorat banklarining kredit qo'yimalari 6,5 martaga o'sgan. 2021 yilda tijorat banklari kredit qo'yimalarining YaIM hajmidagi ulushi 44,4 foizni tashkil qilgan. (2-jadval). Xalqaro tajribadan ma'lumki, «bank kredit qo'yimalarning YaIM hajmidagi ulushi Buyuk Britaniyada 170 foizdan, Niderlandiyada 279 foizdan, Avstraliyada 190 foizdan va AQShda 150 foizdan ziyodni tashkil qiladi»<sup>27</sup>.

---

<sup>24</sup> N.Yamori Japanese SMEs and the credit guarantee system after the global financial crisis. Cogent Economics & Finance Volume 3, 2015. Issue 1 (2015).; Абдуллаев Ё., Юлдашев Ш. Малый бизнес и предпринимательство: Учебник. – Т.: «Иктисод-молия», 2008. – С. 182-183.

<sup>25</sup> Alimardonov I.M. Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss. avtoref. – T.: «Akademiya noshirlik markazi», 2018. – B. 11.

<sup>26</sup> Мудунова А.Ю., Цахаева К.Н. Кредитование малого бизнеса. file:///C:/Users/User/Downloads/kreditovanie-malogo-biznesa-za-rubezhom.pdf.


<sup>27</sup> BIS Statistics Explore (<http://stats.bis.org/statx>).

YaIM hajmi va banklarning kredit qo'yimalari (trln. so'mda)<sup>28</sup>

Ko'rsatkichlar	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
YaIM hajmi	221,35	255,42	317,47	424,72	529,39	602,19	734,58
Banklarning kredit qo'yimalari	50,01	52,59	110,17	167,39	211,58	276,97	326,00

Bunday holat, bir tomondan, banklarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini kredit bilan ta'minlashda barqarorlik kasb etayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, xalqaro tajribalar tahliliga ko'ra iqtisodiyot tarmoqlarini kredit bilan ta'minlash yetarli darajada emasligini ko'rsatadi.

2015-2021 yillarda tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy ta'minlash maqsadida ajratilgan kredit mablag'lari hajmi ham barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lgan (3-rasm).



### 3-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar miqdori, mlrd. so'mda<sup>29</sup>

Ammo, 2020 yilda koronavirus pandemiyasi tufayli kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar 2019 yilga nisbatan 12,7 foizga pasayib, 48389,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Pandemiya ta'sirlarini yumshatish va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida mazkur sohaga ajratilgan kreditlar hajmi 2021 yilda 59552,1 trln. so'mni tashkil qilib, 2020 yilga nisbatan 1,6 barobarga, 2015 yilga nisbatan 4,8 barobarga ortgan. 2015-2021 yillarda tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning bank kredit qo'yimalaridagi ulushi umumiy hisobda pasayib borish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bunday tendensiya tijorat banklari kredit qo'yimalarining o'sish sur'ati kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning o'sish sur'atidan yuqori ekanligini ko'rsatadi va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish nuqtai nazaridan ijobiy holatdir.

Mamlakatimizda 2015-2021 yillarda tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning YaIM hajmidagi ulushi o'sib, 2021 yilda 2015 yilga nisbatan 2,5 foizli bandga oshgan holda 8,1 foizni tashkil etgan. «Bu ko'rsatkich


<sup>28</sup> O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan ([https://cbu.uz/upload/medialibrary/ca1/Markaziy\\_bankning\\_2021\\_yil\\_uchun\\_hisoboti.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/ca1/Markaziy_bankning_2021_yil_uchun_hisoboti.pdf)).

Malayziyada 18,5%, Koreyada 34,5%, Tailandda 30,3% ni tashkil etgan»<sup>30</sup>. Bu esa ushbu mamlakatlarda moliya bozorlarining rivojlanganligi va tadbirkorlikning davlat tomonidan har tomonlama (maxsus dasturlar, kredit kafolatlari, sug‘urtalash, infratuzilma va h.k.) qo‘llab-quvvatlanayotganligi natijasidir. Tadbirkorlik subyektlarining davlat tomonidan moliyaviy jihatdan faol qo‘llab-quvvatlanishi yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining bandligini ta‘minlash, oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmining o‘sib borishi, nafaqat, tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlaydi, balki YaIM hajmining o‘sishi va tadbirkorlik faoliyati bilan band bo‘lganlar sonining ko‘payishini ham ta‘minlab beradi. Chunonchi, 2010-2021 yillar davomida tadbirkorlik faoliyati bilan band bo‘lganlar soni 17,4 foizga o‘sgan bir paytda ish bilan band aholi soni 16,4 foizga oshgan. Huddi shu davrda iqtisodiy faol aholi soni 21,9 foizga o‘sgan. 2021 yilda jami iqtisodiy faol aholining 67,3 foizi tadbirkorlik faoliyati bilan band bo‘lib, ularning soni 10,1 mln. nafarga etgan. Shu nuqtai nazardan tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning muhim shakli hisoblangan mikromoliyalash (mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing va boshq.) amaliyotini rivojlantirish, bank kreditlaridan unumli foydalanish, xalqaro moliya institutlari kredit liniyalarini samarali o‘zlashtirish sohaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etishini ta‘minlashida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

2018-2020 yil va 2021 yilning birinchi yarmida tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga xorijiy kredit liniyalari mablag‘lari hisobidan 7,4 milliard AQSh dollaridan ziyod kredit mablag‘lari ajratildi (4-rasm).



**4-rasm. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kichik tadbirkorlik faoliyatini moliyiy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan kredilar (mln. AQSh dollari hisobida)<sup>31</sup>**


<sup>30</sup> file:///C:/Users/User/Desktop/asia-sme-monitor-2020-sme-development-index.pdf.

<sup>31</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar to‘g‘risida - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (cbu.uz).

Xususan, 2018 yilda 1,3 milliard AQSh dollari, 2019 yilda 2,1 milliard AQSh dollari yoki 2018 yilga nisbatan 162 foiz), 2020 yilda 2,9 milliard AQSh dollari yoki 2019 yilga nisbatan 172 foiz, 2021 yilning I yarmida 1,0 milliard AQSh dollari miqdorida valyutaviy kredit mablag‘lari yo‘naltirildi. Shu davr mobaynida davlat kafolati asosida jalb qilingan xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilgan kredit mablag‘lari 1,8 milliard AQSh dollarini yoki jami ajratilgan kredit mablag‘larining 24 foizini tashkil etdi. 2018-2020 yillarda davlat kafolati bilan jalb qilingan kredit liniyalari hisobidan deyarli bir xil darajada, yiliga o‘rtacha 540 million AQSh dollari. (2018 yilda 579 million AQSh dollari, 2019 yilda 564 million AQSh dollari va 2020 yilda 467 million AQSh dollari) ajratilgan bo‘lsa-da, ularning umumiy kreditlar hajmidagi ulushi to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat kafolatisiz jalb qilingan kredit liniyalari hisobidan ajratilgan kreditlarning jadal o‘shishi hisobiga kamayib bordi. Umuman olganda, bunday dinamika kichik tadbirkorlik subyektlarining xorijiy kredit liniyalari mablag‘lariga bo‘lgan talabi ortib, kreditlash va investitsion loyihalarni moliyalashtirish hajmining oshib borishi bilan xususiyatlanadi, ya‘ni o‘shish tendensiyasiga ega.

Jahon amaliyoti tasdiqlashicha, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining dastlabki davrida ularning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda tijorat banklariga muqobil ravishda tashkil etilgan nobank kredit tashkilotlarining roli kattadir. «Mikromoliyalashtirish dasturlari korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi»<sup>32</sup>. Mikromoliyaviy xizmatlar, birinchi navbatda, kichik qarz oluvchilar bilan ishlashdan manfaatdor bo‘lmagan banklar va boshqa kredit tashkilotlari xizmatlaridan foydalana olmaydigan kichik biznesning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda qo‘l keladi.

2017-2021 yillarda mikrokredit tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda ijobiy tendensiya kuzatilgan (5-rasm).



**5-rasm. Mikrokredit tashkilotlarining soni va jami aktivlari hajmi<sup>33</sup>**

<sup>32</sup> <https://promvest.info/ru/dengi-investitsii/mikrofinansirovanie-i-ego-rol-v-podderjke-malogo-biznesa/>.

<sup>33</sup> <https://review.uz/post/mikrokreditne-organizacii-v-uzbekistane>.

Ammo, tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan jami kreditlarning qariyb 10 foizini mikrokredit tashkilotlarining kredit mablagʻlari tashkil qilgan. «2022 yilning 1 sentyabr holatiga koʻra, mikrokredit tashkilotlarining jami aktivlari 1,7 trln. soʻmni va lombardlarning jami aktivlari 247,8 mlrd. soʻmni tashkil qilgan»<sup>34</sup>. Mikrokredit tashkilotlari aktivlarining YaIM hajmidagi ulushi 0,23 foizni, bank kredit qoʻyilmalaridagi salmogʻi 0,52 foizni tashkil qilgan. Bunday holat nobank kredit tashkilotlari faoliyati rivojlanmaganligini hamda tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy xizmatlar koʻrsatishda garov taʼminoti (kredit summasining 125 foizi miqdorida) bilan bogʻliq muammolar mavjudligini koʻrsatadi va nobank kredit tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatini mikrokreditlashda yetarlicha rol oʻynamayotganliklaridan dalolat beradi. Bu esa ushbu tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlari bilan oʻzaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish hamda mazkur subyektlarni mikrokreditlash tizimini samarali tashkil etish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish lozimligini talab etadi. Shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar koʻrsatuvchi tashkilotlar sonining kamligi ham salbiy omillardandir. 2022 yilning 1 sentyabr holatiga mamlakatimizda 33 ta tijorat banki va 77 ta mikrokredit tashkilotlari faoliyat koʻrsatgan. Taqqoslash uchun «rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlariga moliya-kredit xizmatlar koʻrsatuvchi muassasalar soni Italiyada 527 tani, Fransiyada 391 tani, Avstriyada 470 tani, Buyuk Britaniyada 454 tani tashkil qiladi»<sup>35</sup>.

Amaldagi qonunchilikka koʻra, mikromoliya tashkilotlari «tadbirkorlik subyektlariga mikrokredit summasidan oshadigan miqdorda kreditlar, lizing, kafolatlar berishga, faktoring xizmatlari va islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni, lombardlar esa jismoniy shaxslarga qisqa muddatli mikroqarzlarni berishga doir faoliyatni»<sup>36</sup> amalga oshirib kelmoqda. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari oʻz biznesini yoʻlga qoʻyish, dastlabki sarmoyani shakllantirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishga 50 mln. soʻmdan oshmaydigan miqdorda toʻlovlik, muddatlilik va qaytarishlik shartlari asosida taqdim etiladigan mikroqarzlardan, 300 mln. soʻmdan oshmaydigan miqdorda toʻlovlilik, muddatlilik va qaytarishlik shartlari asosida mikrokreditlardan hamda mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida xaq evaziga berishni nazarda tutuvchi mikrolizing xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Ammo, ushbu kredit mablagʻlari yuridik va jismoniy shaxslarning kafilligi, bank yoki sugʻurta tashkilotining kafolati, sugʻurta tashkilotining sugʻurta polisi yoki boshqa turdagi koʻchar va koʻchmas mulk garovi asosida taqdim etiladi.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida va xalqaro tajribada tadbirkorlik subyektlarining kredit olishlarida garov taʼminotining yetarli yoki mavjud emasligi asosiy muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni yumshatish yoki hal etish

<sup>34</sup> <https://cbu.uz/oz/statistics/credit/686106/>.

<sup>35</sup> [https://translated.turbopages.org/proxy\\_u/en-ru.ru.a0f8ee37-634da676-29f510a4-74722d776562/https://www.statista.com/statistics/1111010/european-union-number-monetary-financial-institutions-by-type/](https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-ru.ru.a0f8ee37-634da676-29f510a4-74722d776562/https://www.statista.com/statistics/1111010/european-union-number-monetary-financial-institutions-by-type/).

<sup>36</sup> Oʻzbekiston Respublikasining 2022 yil 20 apreldagi OʻRQ-765-son «Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati toʻgʻrisida»gi Qonuni, 4-modda.

maqsadida jahoning 100 dan ortiq mamlakatlari, xususan, Yaponiya, Xitoy, Koreya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va AQSh tadbirkorlik subyektlari tomonidan olinadigan kreditlar va mikromoliyaviy xizmatlar bo'yicha zaruriy ta'minotni, kredit ta'minotiga kafilliklarni taqdim etadilar. Tadbirkorlik subyektlariga kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kafillik va kompensatsiyalar joriy qilingan. Aksariyat rivojlangan, xususan, AQSh, Germaniya, Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Kafolat fondlari<sup>37</sup> faoliyat ko'rsatadi va ushbu fondlar tadbirkorlik subyektlari tomonidan olingan kredit summasining 50-90 foizigacha kafillik taqdim etadi. «Kafolat jamg'armalari tomonidan bir qarzdorga beriladigan kafillikning maksimal miqdori Buyuk Britaniyada 175 ming AQSh dollari, Koreya Respublikasida esa 10 mln. AQSh dollarini tashkil etadi»<sup>38</sup>. Kafolat fondi tomonidan beriladigan kafilliklar to'lovlilik asosida bo'lib, to'lov summasi<sup>39</sup> kafillik summasi va kafillik beriladigan muddatga bog'liq bo'ladi.

Dissertatsiyaning «**Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari**» deb nomlangan uchinchi bobida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish jarayonidagi muammolar aniqlangan va ilg'or xorij tajribalari asosida moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari asoslangan.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishda ushbu faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va muhim belgilaridan kelib chiqib, asosiy muammo sifatida quyidagilarni alohida qayd etish zarur:

1. Tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklaridan kredit olishlarida garov ta'minoti (ko'char va ko'chmas mulklar, qimmatbaho metallar, qimmatli qog'ozlar va h.k.)ning yetishmasligi muammosi.

«Banklar garov, kafolatlar, kafillik, majburiyatlar asosida va majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning qonunda nazarda tutilgan boshqa usullari asosida kreditlar beradi»<sup>40</sup>. Shu munosabat bilan garov majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullaridan biri bo'lib, garov<sup>41</sup> tufayli qarz oluvchi kreditor (qarz beruvchi) oldidagi majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, shu jumladan, kreditlarni va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarmagan holatlarda majburiyatning bajarilishi garovga qo'yilgan mol-mulk hisobidan ta'minlanadi. Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatining beqarorligi sababli kreditni qaytmaslik riskining yuqoriligi, banklar tomonidan taqdim etilayotgan kredit resursi birligiga to'g'ri keluvchi xarajatlarning yuqori bo'lishi va tadbirkorlik subyektlarining aksariyat hollarda likvidli garov ta'minoti, ijobiy kredit tarixining mavjud bo'lmasligi sabab, tijorat banklari ularga kredit berishdan uncha manfaatdor emas. Bir vaqtning o'zida, tadbirkorlik subyektlarining bank kreditlaridan foydalanishida garovga

<sup>37</sup> Aksariyat mamlakatlarda Kafolat fondlari ta'sischi sifatida davlat, mahalliy boshqaruv organlari, savdo-sanoat palatasi va banklar ishtirok etadi.

<sup>38</sup><https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-biznes-uz/4063-tadbirkorlik-faoliyatini-rivojlantirishni-qollab-quvvatlash-davlat-jamgarmasi-uning-faoliyat-mezonlari-nimalardan-iborat>.

<sup>39</sup> Masalan, AQShda ushbu to'lov miqdori olinayotgan kafillik summasining 2,0-3,5 foizi, Koreya Respublikasida 0,5-2,0 foizi, Xitoyda esa 0,8-1,2 foizini tashkil etadi.

<sup>40</sup> <https://lex.uz/docs/4581969>.

<sup>41</sup> Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi.

qo'yadigan mulkining yetishmasligi yoki yo'qligi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu esa aholining tadbirkorlik faolligini pasaytiradi, kichik ishlab chiqarish korxonalarining taraqqiyotini rag'batlantirmaydi. Vaholanki, garov ta'minoti barcha mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishdagi asosiy muammolardan biridir. AQShda ushbu muammo davlat kafolatlari orqali hal etilgan. Jumladan, AQShda «Kichik biznes ma'muriyati kichik va o'rta korxonalariga moliyaviy mablag'lar taqdim etishda turli tashkilotlar manfaatdorligini oshirish maqsadida qarz sarmoyasining 90 foizigacha miqdorida kreditorlarga davlat kafolatlarini beradi»<sup>42</sup>. Shunisi diqqatga sazovorki, «Kichik biznes ma'muriyati tomonidan ajratilgan mablag'lar ko'pincha samarasiz bo'lib, aksariyat kreditlar umuman qaytmaydi ham. Kafolat taqdim etilgan tadbirkorlik subyektlarining 85 foizi yil davomida tugatilishiga qaramay, Ma'muriyat ekspertlari qolgan qismining muvaffaqiyatli ishlashi beriladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni to'liq oqlaydi»<sup>43</sup>, deb hisoblashadi. Bunday amaliyot Yaponiyada ham mavjud bo'lib, moliya-kredit institutlari tomonidan kichik biznes subyektlariga beriladigan kreditlar Kredit kafolat fondi tomonidan kafolatlanadi. «Mabodo, tadbirkorlik subyektlari bankrot bo'lganlarida olingan kredit mablag'i Kredit kafolat fondi tomonidan qoplab beriladi. Buning uchun Yaponiya hukumati va mahalliy hukumat Kredit kafolat fondini Yaponiya moliya korporatsiyasi orqali to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar orqali qo'llab-quvvatlaydi»<sup>44</sup>. Natijada, tadbirkorlik subyektlari o'z loyihalarini moliyalashtirishlari uchun kreditlarni qulay shartlarda jalb qiladilar va banklar uchun kreditning qaytmaslik riski sezilarli darajada kamaytiriladi.

2. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan kreditlar foiz stavkasi darajasining yuqoriligi.

Mazkur muammo garov ta'minoti muammosi bilan uzviy bog'liq bo'lib, agarda tadbirkorlik subyektlarining banklardan kredit olishlarida yetarli darajadagi ta'minoti mavjud bo'lmasa banklar paydo bo'lishi mumkin bo'lgan risklar qiymatini aksariyat holarda kredit foiziga qo'shib yuboradi. Oqibatda, kreditni qaytarib olish bilan bog'liq xarajatlar (sud va b.)ning oshib ketish ehtimoli mavjudligi sababli kredit bo'yicha foiz stavkasi darajasi ko'tarilib ketadi. «2021 yilda banklar tomonidan milliy valyutada berilgan qisqa muddatli kreditlarning o'rtacha tortilgan foiz stavkasi yillik hisobda 21,4 foizni tashkil qilib, 2015 yilga nisbatan 7,6 foizli bandga oshgan»<sup>45</sup>. Bu sezilarli darajada yuqori bo'lgan foiz stavkasi hisoblanadi. «Masalan, 2019 yilda kichik biznesga berilgan milliy valyutadagi kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi Rossiya Federatsiyasida 8,8%, AQShda 5,3%, Germaniyada 1,82%, Xitoyda 4,35% va

---

<sup>42</sup> Сирополис Николас К. Управление малым бизнесом. Пер. с англ. – М.: «Дело», 1997. – С. 291.

<sup>43</sup> Абатуров В., Саматов Р., Рустамов Д. Финансовая поддержка малого и среднего бизнеса: мировой опыт // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2000. - №10. – С. 16.

<sup>44</sup> Yamori N. Japanese SMEs and the credit guarantee system after the global financial crisis. Cogent Economics & Finance Volume 3, 2015. Issue 1 (2015).

<sup>45</sup> <https://cbu.uz/oz/statistics/dks/691602/>.

Yaponiyada 0,95%, Qozog‘istonda 11,8 foizni tashkil etgan»<sup>46</sup>. Albatta, bank kredilarining foiz stavkasi kreditlashning manbasi hisoblangan depozitlarning foiz stavkalariga hamda inflyatsiyaning yillik darajasiga bog‘liq. O‘z navbatida, depozitlarning foiz stavkalari aholi va tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari asosida shakllanadi. Bank kreditlarining foiz stavkalari inflyatsiya darajasi va inflyatsion kutilmalarning hamda banklar tomonidan jalb qilingan resurslarning foizlariga bevosita bog‘liq. 2021 yilda bank foiz stavkasi yillik inflyatsiya darajasidan yuqori bo‘lganligi kreditlarning samaradorligini ta‘minlash nuqtai nazaridan ijobiy holat, ammo bu tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini pasaytiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda ilg‘or xorijiy tajribalarga asoslanib, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishdagi muammolarni bartaraf etish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish maqsadida Davlat yoki u tomonidan tashkil etilgan Jamg‘armalar tomonidan tadbirkorlik subyektlarining banklardan olgan kreditlariga kafillik berish, foiz xarajatlarini kompensatsiyalash muhim amaliy ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning (X2) YaIM hajmi (Y)ga va tadbirkorlik faoliyati bilan band bo‘lganlar soni (X1)ga ta‘sirini iqtisodiy baholash uchun korrelyatsion tahlilni amalga oshirish talab qilinadi. Buning uchun korrelyatsiya koeffitsiyentini quyidagi formula orqali hisoblab, X va Y belgilari orasidagi bog‘lanishni va uning kuchi (ta‘sir doirasi)ni aniqlaymiz:

$$R_{xy} = \frac{\sum (X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y})}{\sqrt{\sum (X_i - \bar{X})^2 \sum (Y_i - \bar{Y})^2}} \quad (1)^{47}$$

Bu erda:  $R_{xy}$ – korrelyatsiya koeffitsiyenti.

Korrelyatsiya koeffitsiyentini aniqlash uchun har bir omilning YaIM hajmiga ta‘siri bo‘yicha hisoblab chiqamiz. Dastlab YaIM hajmi hamda tadbirkorlik faoliyati bilan band bo‘lganlar o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblaymiz. Yuqorida keltirilgan jadval ma‘lumotlari asosida YaIM hajmi (Y) va tadbirkorlik faoliyati bilan band bo‘lganlar (X1) orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentini topamiz.

$R_{xy} = 0,7778$  ga teng.

YaIM hajmi hamda tadbirkorlik faoliyati bilan band bo‘lganlar o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblaymiz. Yuqorida keltirilgan jadval ma‘lumotlari asosida YaIM hajmi (Y) va tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi (X2) orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentini topamiz.  $R_{xy} = 0,948$  ga teng. Mazkur koeffitsiyentlarni umumlashtirgan holda quyidagi jadvalda tasvirlaymiz.

### 3-jadval

#### Korrelyatsiya matritsasi

Y	X1	X2	Ko‘rsatkichlar
1,0000	0,7778	0,9480	Y
	1,0000	0,6698	X1
		1,0000	X2

Izoh: Hisob-kitoblar Gretl dasturiy majmuasida hisoblab chiqildi.


<sup>46</sup> Специальный доклад Президенту Российской Федерации – 2021. МСП/ПОСТКОВИД. Время для системных решений. – М.: «Институт экономики роста им. П.А.Столыпина», 2021. – С. 34.

<sup>47</sup> Zokirova M., Abdug‘afforov A. Iqtisodiy modellashirish amaliyoti. – T.: «O‘zbekiston», 1999. – B. 9.

Korrelyatsiya matritsasi asosida modellashtirishni amalga oshirish uchun yaroqli bo'lgan ko'rsatkichlarni tanlab olamiz. Amalga oshiradigan tahlilimizda natijaviy belgi sifatida YaIM hajmi (Y) ko'rsatkichlarini olamiz. Korrelyatsiya koeffitsiyenti biror omilning boshqa bir omilning o'zgarishiga qanchalik darajada ta'sir ko'rsatishini ifodalovchi muhim ko'rsatkich hisoblanib, u -1 va 1 oralig'ida o'zgaradi. Agar ko'rsatkich 0 va 1 oralig'ida bo'lsa, omil belgi natijaviy belgi o'zgarishiga to'g'ri, -1 va 0 oralig'ida bo'lsa, omil belgi natijaviy belgi o'zgarishiga teskari ta'sir ko'rsatishini ifodalaydi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti qanchalik 1 yoki -1 yaqin bo'lsa, bog'liqlik shu darajada kuchli bo'ladi va aksincha.

O'rganilayotgan omillar orasidagi korrelyatsion bog'liqlilik darajasi yuqori va to'g'ri proporsional. Shu sababli, tadbirkorlikning YaIM hajmidagi ulushini hamda tadbirkorlik faoliyati bilan band bo'lganlar sonini oshirishda muhim omillardan biri sifatida, asosiy e'tiborni, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish hajmlarini oshirishga qaratish lozim bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni tashkil etish borasida rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari boy tajribalarga ega bo'lib, O'zbekiston uchun o'rganilishi va tatbiq etilishi lozim bo'lgan qator ijobiy tavsiyalarni bera oladi (6-rasm).



**6-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni tashkil etish borasida rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari tajribalari<sup>48</sup>**

<sup>48</sup> Rasm tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan shakllantirilgan.

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning bunday tizimi barcha taraqqiy etgan mamlakatlar (Germaniya, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya) uchun ham xosdir. Mazkur xalqaro tajribalar asosida O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarining loyihalariga ajratiladigan kreditlarning yarmini kafolatlash, yuqori foiz stavkalarini kompensatsiyalash, respublika hududlarida tadbirkorlik faoliyatini Davlat dasturlari asosida moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir.

## XULOSA

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshirish natijasida bir necha xulosalarga kelindi, ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar (mablag‘lar) bilan ta‘minlashga tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish deyiladi va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish tizimi quyidagi to‘rtta qismni mujassamlashtira olgandagina yaxlit va obyektiv bo‘ladi: tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtiruvchi muassasalar va moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi infratuzilmalar; moliyalashtirish manbalari va usullari; moliyalashtirish tartibi; moliyalashtirish yo‘nalishlari va obyektlari.

2. 2000-2021 yillar davomida tadbirkorlikning mamlakat YaIM hajmi, sanoat va qurilishdagi ulushi «ko‘tarilish-pasayish-ko‘tarilish-pasayish» tarzida o‘zgarib borishi, birinchidan, YaIM hajmi, qurilish va sanoat ishlab chiqarishning o‘sish sur‘atlari tadbirkorlik faoliyatining o‘sish sur‘atlaridan yuqori bo‘lganligi, ikkinchidan, tadbirkorlik subyektlarining aksariyat hollarda boshlang‘ich mablag‘larga ega emasligi va qo‘shimcha moliyaviy resurslar (kreditlar)ni jalb etishda qiyinchiliklarning mavjudligi hamda bozor sharoitlarining o‘zgarishiga ta‘sirchan, uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolarning mavjudligi bilan xususiyatlanadi.

3. 2010-2021 yillarda tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning bank kredit qo‘yilmalaridagi ulushi o‘rtacha 27,5 foizni tashkil qilganligi banklar tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kredit bilan ta‘minlash yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi. Bunday holat tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatining beqarorligi sababli kreditni qaytmaslik riskining yuqoriligi, banklar tomonidan taqdim etilayotgan kredit resursi birligiga to‘g‘ri keluvchi xarajatlarning yuqori bo‘lishi va tadbirkorlik subyektlarining aksariyat hollarda likvidli garov ta‘minoti, ijobiy kredit tarixining mavjud bo‘lmasligi sababli banklar ularga kredit berishdan uncha manfaatdor emasligi bilan izohlanadi. Xalqaro amaliyotda ushbu muammo davlatning ko‘magi bilan hal etiladi, xususan, tadbirkorlik subyektlarining kredit olishlarida davlat

kafolatlarining berilishi, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda maxsus davlat Dasturlarining amal qilishi shular jumlasidandir.

4. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning YaIM hajmiga va tadbirkorlik faoliyati bilan band bo'lganlar soniga ta'sirini korrelyatsion tahlil natijalari omillar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlilik darajasi yuqori va to'g'ri proporsional ekanligini ko'rsatadi va shunga muvofiq ravishda tadbirkorlikning YaIM hajmidagi ulushini hamda tadbirkorlik faoliyati bilan band bo'lganlar sonini oshirishda muhim omillardan biri sifatida, asosiy e'tiborni, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish hajmlarini oshirishga qaratish lozim bo'ladi.

5. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining dastlabki davrida ularning kredit resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda tijorat banklariga muqobil ravishda tashkil etilgan nobank kredit va mikromoliya tashkilotlari kichik qarz oluvchilar bilan ishlashdan manfaatdor bo'lmagan banklar va boshqa kredit tashkilotlari xizmatlaridan foydalana olmaydigan kichik biznesning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda qo'l keladi. Ammo, 2021 yilda mikrokredit tashkilotlari aktivlarining YaIM hajmidagi ulushi 0,23 foizni, bank kredit qo'yilmalaridagi salmog'i 0,52 foizni tashkil qilganligi nobank kredit tashkilotlari faoliyati rivojlanmaganligidan, binobarin, tadbirkorlik faoliyatini mikrokreditlashda yetarlicha rol o'ynamayotganliklaridan dalolat beradi.

6. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining kredit olishlarida garov ta'minotining yetarli emasligi yoki mavjud emasligi va kichik biznes vakillariga berilayotgan bank kredilari foiz stavkalarining yuqoriligi asosiy muammolardan hisoblanadi. Bu esa aholining tadbirkorlik faolligini pasaytiradi, kichik ishlab chiqarish korxonalarining taraqqiyotini rag'batlantirmaydi. Ushbu muammo rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan olinadigan kreditlar va mikromoliyaviy xizmatlar bo'yicha zaruriy ta'minotni, kredit ta'minotiga kafilliklarni taqdim etish orqali hal etiladi. Tadbirkorlik subyektlariga kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalar joriy qilingan. Aksariyat rivojlangan, xususan, AQSh, Germaniya, Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan Kafolat fondlari, ixtisoslashgan banklar faoliyat ko'rsatadi va ular tomonidan tadbirkorlik subyektlariga kredit summasining 50-90 foizigacha kafillik taqdim etadilar.

7. Ilg'or xalqaro tajribalar asosida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishda quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi: tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan tijorat banklari kreditlariga kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga ajratiladigan kreditlarning 50 foizigacha kafillik berish zarur; tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalariga tijorat

banklarining milliy valyutada ajratiladigan, umumiy qiymati 5 milliard soʻmdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan kredit va lizinglari boʻyicha uning asosiy stavkadan oshgan qismini qoplash uchun 3 yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etish kerak; aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash, ularning oʻz biznesini tashkil etishiga koʻmaklashish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish maqsadida Dasturlar doirasida tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
№DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**БАЕВА ШАХЗОДА ХАБИБУЛЛАЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ  
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам**

**город Ташкент – 2023 год**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2017.3.PhD/Iqt380 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.  
Автореферат диссертации на трёх языках (русский, узбекский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:** Алмарданов Мухамади Ибрагимович  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Ташмурадова Бувсара Эгамовна  
доктор экономических наук, профессор  
Рахмонов Дилшоджон Алиджонович  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:** Академия государственного управления при  
Президенте Республики Узбекистан


Защита диссертации состоится «20» 07 2023 года в 16<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета по присуждению научных степеней № DSc.03/10.12.2019.L16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано под номером 1315). Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, д. 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «6» 07 2023 года  
(протокол реестра № 43 от «6» 07 2023 года).



  
**М.П. Эшов**  
Председатель Научного совета  
по присуждению учёных  
степеней, д.э.н., профессор

  
**У.В. Гафуров**  
Учёный секретарь Научного  
совета по присуждению учёных  
степеней, д.э.н., профессор

**С.К. Худойкулов**  
Председатель Научного  
семинара при Научном совете  
по присуждению учёных  
степеней, д.э.н., профессор  


## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Как показывает мировой опыт, одним из важнейших факторов обеспечения устойчивого и инновационного развития любой экономики является развитие предпринимательской деятельности, которая играет важную роль в решении таких актуальных проблем, как безработица, обеспечение занятости населения и сокращение бедности за счёт создания источников дохода. Доля малого предпринимательства в валовом внутреннем продукте (ВВП) «в Европейском союзе составляет 75 процентов, в США – 53 процентов, а в Японии равна 55 процентам»<sup>1</sup>. Как отмечено в отчёте Всемирного банка (World Bank Group) по итогам 2021 года «малые предприятия являются фундаментом экономики стран мира, которые предоставляют жизненно важные услуги, создают рабочие места и помогают семьям выбраться из бедности. ... поэтому мы должны обеспечить их выживание в долгосрочной перспективе»<sup>2</sup>. Обеспечение жизнеспособности малых предприятий и развитие данного вида деятельности непосредственно связано с вопросом их финансирования. По данным Международной финансовой корпорации (IFC) «в развивающихся странах 65 млн. фирм или 40 процентов микро, малых и средних предприятий ежегодно испытывают потребность в дополнительных кредитах в размере 5,2 трлн. долларов США, эта цифра в 1,4 раза превышает уровень сегодняшнего дня по кредитованию малого и среднего бизнеса в глобальном масштабе»<sup>3</sup>. В качестве основных индикаторов в рейтинге различных престижных международных финансовых институтов и банков учитываются порядок получения кредитов и процессы финансового обеспечения и это показывает необходимость развития системы финансового обеспечения предпринимательской деятельности в странах мира.

В международной практике такими престижными международными организациями, как Всемирный банк и Международная финансовая корпорация в его составе, Агентством США по международному развитию, Европейским банком реконструкции и развития, Департаментом международного развития Великобритании, Программой развития Организации объединённых наций проведён ряд научных исследований, направленных на совершенствование финансирования предпринимательской деятельности. В данных исследованиях нашли своё решение такие вопросы, как финансовая поддержка деятельности малого предпринимательства и совершенствование системы микрофинансирования, эффективная организация системы финансирования предпринимательской деятельности небанковскими кредитными организациями. Однако вопросы, связанные с

---

<sup>1</sup> <https://ma123.ru/wp-content/uploads/2020/07/Коваленко-2-2020.pdf>.

<sup>2</sup> Годовой отчет IFC 2021. Группа Всемирного банка. Международная финансовая корпорация 2121 Pennsylvania Avenue, NW Washington, DC 20433 USA. ifc.org. 2021. – С. 10.

<sup>3</sup> [https://unctad.org/system/files/official-document/osg2020d1\\_en.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/osg2020d1_en.pdf). Impact of the Covid-19 Pandemic on Trade and Development.; For appropriations from all legislation, see Government Accountability Office (GAO), COVID-19: Opportunities to Improve Federal Response and Recovery Efforts, Report to the Congress, GAO-20-625, June 25, 2020, <https://www.gao.gov/reports/GAO-20-625/>.

эффективным использованием средств Государственного фонда при поддержке предпринимательской деятельности, предоставления гарантий для кредитов, выделяемых под проекты субъектов малого предпринимательства, финансовой помощи в виде компенсации, финансированием проектов предпринимательства в рамках специальных государственных программ, до сих пор не решены положительным образом.

В Узбекистане за годы независимости обеспечение развития малого предпринимательства стало одним из приоритетных направлений экономических реформ. В результате всесторонней государственной поддержки предпринимательской деятельности «в 2021 году доля этого сектора в ВВП страны достигла 54,9 процентов. Тогда как в 2000 году этот показатель составлял 31 процентов»<sup>4</sup>. В Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям дальнейшего развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы обозначена задача «...дальнейшего расширения кредитования субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства»<sup>5</sup>, а также в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы задача «организации предпринимательской деятельности и создания условий по формированию источников постоянных доходов, увеличению доли частного сектора в валовом внутреннем продукте до 80 процентов и его доли в экспорте до 60 процентов»<sup>6</sup>. Выполнение таких жизненно важных задач требует решения специфических проблем, имеющих в финансировании предпринимательской деятельности, совершенствования системы финансирования проектов субъектов предпринимательства. В свою очередь, эти аспекты требуют глубокого научного исследования вопросов финансирования предпринимательской деятельности.

Данная диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-150 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности государственного фонда поддержки предпринимательской деятельности» от 9 июня 2022 года, № УП-101 «Об очередных реформах по созданию условий для стабильного экономического роста путём улучшения предпринимательской среды и развития частного сектора» от 8 апреля 2022 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-212 «О мерах по дальнейшему расширению механизмов финансирования предпринимательских проектов в регионах» от 19 апреля 2022 года и № ПП-5041 «О дополнительных мерах, осуществляемых в рамках программ развития семейного предпринимательства» от 27 марта 2021 года и в других нормативно-правовых документах, касающихся данной сферы.

---

<sup>4</sup> <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.

<sup>5</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». 3.1 пункт 5.

<sup>6</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», 29-цель.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данная исследовательская работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Вопросы, связанные с совершенствованием теоретических и методологических основ финансирования предпринимательской деятельности, изучены учёными-экономистами дальнего зарубежья, такими как А.Хоскинг, Р.Хизрич, М.Питерс, Ф.Хайек, К.Дж.Лембден, М.Юнус, Ф.Аллен, Й.Шумпетер, Y.Joshua<sup>7</sup>.

В научных работах учёных ближнего зарубежья, таких как А.Агафонов, М.Аликаева, Н.Баландина, В.Буров, А.Бусигын, Н.Быканова, М.Лапуста, Ю.Рубина, В.Рубе, С.Смирнов, Е.Чеберко, Л.Чебуханова, В.Черненко исследованы вопросы, связанные с финансированием предпринимательской деятельности, её государственной поддержкой, совершенствованием системы кредитования и технологии микрофинансирования субъектов малого бизнеса<sup>8</sup>.

Из отечественных учёных-экономистов в своих исследованиях С.Гуломов, Б.Ходиев, М.Косимова, А.Самадов, У.Гафуров, К.Муфтайдинов, Т.Коралиев, Г.Яхшибоев, Д.Саидов исследовали предпринимательскую

---

